



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No8
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 154 sahifa.

2025-yil noyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MEHMONXONA KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	10
Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Ochilova Hilola Farmonovna	
FAULT TOLERANCE AND SELF-HEALING IN IOT-ENHANCED P2P SYSTEMS	15
Ibrokhimkhuja Rikhsikhujayev, Mohit Bhandwal	
BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	22
Ikromov Boisxon Bahodir o'g'li, Ozodbek Musayev	
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VIRTUAL LABARATORIYADAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.....	27
Turayeva Sabrina Kamoliddin qizi, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR.....	32
Rafiqov Abror Baxtiyor o'g'li, Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
OMBORXONALARNI BOSHQARISHDA RFID TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNI AFZALLIKLARI	36
Mirkamolov Mirsardor Mirxamdami o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
STARTAPLAR VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARIDAGI ROLI	41
Abdumajidova Muxlisa Alisher qizi, Umarova Mukaddas Abbasovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY SUG'URTA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	46
Sobirova Ozoda Rustamovna, Safarov Javohir Ismoilovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY TO'LOV TIZIMLARINING ELEKTRON TIJORATDAGI AHAMIYATI.....	50
Teshayev Sayimbek Anvarovich, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
CHANGES IN PULSE RATE IN BLOOD VESSELS DURING PHYSICAL EXERCISE	56
Pirnazarov Elchin Anvar o'g'li, Yoldasheva Roila Jumaevna	
JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBAL XAVFSIZLIK VA IQTISODIY BARQARORLIK	61
Qayumov Sobit Obid o'g'li, Xasanov Nodir Erkinovich	
LABOR RESOURCES – THE MAIN FACTOR OF NATIONAL DEVELOPMENT.....	68
Qurbanov Tolmasjon Namoz ugli, Mustafayev Golib Sultonmurodovich	
ISTE'MOLCHI TANLOVI VA NAFLILIK NAZARIYASINI ILMIY ASOSLARI.....	75
Q.Abdukarimov, M.Keldibekova, F.Umarov	
KORXONALARDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	80
Tumaris Nietullaeva, Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDAGI TA'SIRI HAMDA AXBOROT XURUJLARI	87
Kodirov Ozodbek, F.Umarov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSIYALAR TAHLILI VA TARMOQNING MAMLUKAT EKSPORTIDAGI O'RNI.....	93
G'ulomiddinov Bobobek Sardorjon o'g'li, G'ulamov Ilhom Akramovich	
BIZNESNI BOSHQARISHDA ERP TIZIMIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	98
Abduhamidova Shodiyaxon Abdushukur qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON HAMKORLIK MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHI	103
Fayzullayev Aminjon, F.Umarov	
O'ZBEKISTONDA HUDUDLAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLAR	110
Najmiddinova Malikabonu Asrorovna, F.Umarov	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'INING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI XUSUSIDA	117
Mahmudov Orifbek Abdumomin o'g'li, Azmiova Feruza Payziyevna	



O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING TARKIBIY RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	122
Xayrullayev Javohir Sheraliyevich, Maqsudov Bunyodjon Abdusamat o'g'li	
MINTAQALARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI TARTIBGA SOLISH VA XALQARO TAJRIBA.....	128
Xudoyberdiyev Feruzbek, F.Umarov	
MINTAQALAR IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH HOLATINI BAHOLASH: TAHLIL VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	135
Yarashev Mirkomil, F.Umarov	
OROL DENGIZI INQIROZI OQIBATIDA YER DEGRADATSIYASI VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH IMKONIYATLARI: QORAQALPOG'ISTON MISOLIDA (NDVI VA NDMI TAHLILI ASOSIDA)	141
Nurmatova Shahzoda, Oralbaev Bakhitjan Orintaevich, Ruziyeva Iroda Davutovna, Turopova Nigora Xolmurod qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	147
Abubakirova Xonzoda, F.U.Umarov	



MINTAQADA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI



Abubakirova Xonzoda

TDIU, "Iqtisodiyot" fakulteti I-77 guruh talabasi

Ilmiy rahbar:

F.U.Umarov

TDIU, "Mintaqaviy iqtisodiyot" kafedrasida dosenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqaviy darajada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan. Unda tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy o'sishdagi roli, zamonaviy yondashuvlar, soliq imtiyozlari, kreditlash siyosati, infratuzilmani yaxshilash va biznes muhiti erkinligini oshirish kabi omillar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, xorijiy tajribalar asosida tavsiyalar berilgan. Maqola hududiy rivojlanishda kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, mintaqaviy rivojlanish, davlat qo'llab-quvvatlashi, kreditlash, soliq imtiyozlari, biznes muhit.

Abstract: This article analyzes the key areas of development and support for small businesses and private entrepreneurship at the regional level. It examines factors such as the role of entrepreneurship in economic growth, modern approaches, tax incentives, credit policy, infrastructure improvements, and enhancing the business environment. Recommendations based on international experience are provided. The article aims to enhance the socioeconomic significance of small businesses in regional development.

Key words: Small business, private entrepreneurship, regional development, government support, lending, tax incentives, business environment.

Аннотация: В статье анализируются основные направления развития и поддержки малого бизнеса и частного предпринимательства на региональном уровне. Рассматриваются такие факторы, как роль предпринимательской деятельности в экономическом росте, современные подходы, налоговое стимулирование, кредитная политика, совершенствование инфраструктуры и повышение свободы деловой среды. Даны рекомендации, основанные на зарубежном опыте. Статья направлена на повышение социально-экономической значимости малого бизнеса в региональном развитии.

Ключевые слова: Малый бизнес, частное предпринимательство, региональное развитие, государственная поддержка, кредитование, налоговое стимулирование, деловая среда.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv jarayonida mamlakatimizda faol tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik biznesni zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish va ilg'or texnologiyalar hamda boshqaruv uslublari joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Ushbu sa'yoharaktlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun qulay iqtisodiy va huquqiy muhit yaratilmoqda,



bu esa o'z navbatida ularning barqaror rivojlanishiga, samaradorligining oshishiga va xalqaro me'yorlarga mos faoliyat yuritishiga xizmat qilmoqda.

Ma'lumki, mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sish, aholi turmush farovonligi va aholi daromadlarini oshirish, ijobiy to'lov balansini ta'minlash, mamlakat eksport salohiyatini oshirish hamda import o'rnini bosuvchimahsulotlar ishlab chiqarishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'zni tobora ortib bormoqda. Bu borada bir qator ijobiy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish bo'yicha respublika va hududiy maqsadli dasturlari (kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq joylarida bandlik, energetika mustaqilligini ta'minlash va boshqalar) ishlab chiqildi va amalga oshirildi [2].

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bozor muhitigatez moslasha olishi, bandlikni ta'minlash, daromadlarni shakllantirish va shu orqali aholi daromadlari tengsizligini yumshatish hamda o'rta mulkdorlar qatlamini qaror toptirishda turli afzalliklarga ega. Hamda mulkdor yoki tadbirkorlarning xususiy shaxsiymulkni ro'yobga chiqarishda xo'jalik yuritishning eng samarali shakli bo'lib hisoblanadi.

Ayniqsa, bugungi kunga kelib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga rivojlanishning yangi bosqichi xos bo'lmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, shuningdek, inklyuziv va barqaroriqtisodiy o'sishga erishish orqali kambag'allikni ikki barobarga qisqartirish, iqtisodiyotda raqobatni ta'minlash, tadbirkorlik subyektlariga teng sharoitlar yaratish, bozor munosabatlariga to'laonli o'tishni jadallashtirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, xususiy investitsiyalar hajmini keskin oshirish hamda biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 aprelda PF-101-sonli "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi [26].

Mazkur islohotlar davlat siyosati doirasida tadbirkorlik faoliyatining erkinligini ta'minlashga qaratilgan. Shu bois, tadbirkorlik faoliyatining erkinligi, xususiy mulk dahlsizligini amalda ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalish bo'lib qoladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ham ma'lumki, turli mulk shakllariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining taraqqiyotida davlatning qo'llab-quvvatlashi tizimi yuqori bo'lib, ularning faoliyati xususiy mulkchilik shaklida amalga oshiriladi.

Ana shulardan kelib chiqib, respublikamizda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilgan institusional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi. Respublikamizda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, ularni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda [3].

Mamlakatimizda qisqa davrda to'plangan tajribalarimiz kichik biznes barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omili ekanligini isbotladi. Ayniqsa, mamlakat iqtisodiyotida chuqur tarkibiy o'zgartirishlar va diversifikatsiya sharoitida milliy iqtisodiyotimizni barqaror rivojlanishi, uning raqobatbardoshligini oshishi hamda yuqori makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga erishishimizda kichik biznes muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 29-maqsadiga ko'ra, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish belgilangan. Muhim vazifalar sifatida hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish, sharoiti og'ir bo'lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo'l ochish, iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish kabilarda alohida belgilab qo'yilgan [6].

Mamlakatimiz hududlarida kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini oshirish, o'zini-o'zi band qilishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

MAVZU OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu mavzuga doir masalalar bir qator xorijlik iqtisodchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, A.Smit [9], Yo.Shumpeter [10], J.M.Keyns [11], P.Xizrich, M.Piters, F.Kotler [12], P.A.Samuelson [14], V.D.Nordxaus kabi tanikli iqtisodchilarning bu sohada bir qator nazariy asarlari yaratilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish masalalari bo'yicha rossiyalik iqtisodchilarning ham bir qator ilmiy asarlari mavjud Ularni orasida N.E.Simionova [15], A.O.Blinov [16] va boshqalarni nomlarinikeltirish mumkin.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning umumiy jihatlarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha, S.S.G'ulomov [21], Yo.A.Abdullayev [22], Sh.J.Ergashxodjayeva [23], A.N.Samadov, A.A.Xadjimuratov [24] kabilarning ishlarini qayd etish mumkin.Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga



solish masalalari U.V.G'ofurov, Sh.I.Mustafaqulov, O.A.Aripov, T.A.Mamajanova, F.U.Umarov va boshqalarning ilmiy ishlarida o'rganilib, tadqiq qilingan¹⁹.

Biroq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning aynan hozirgidavr bilan bog'liq muammolari hali yetarlicha o'rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada abstrakt-mantiqiy tahlil, analiz va sintez, iqtisodiy tahlil, induksiya va deduksiya, kuzatish, tizimli yondashuv, sabab va oqibat, zamon va makon, qiyoslash, korrelyatsiya va regressiya, sinergetik tahlil, kabi usullardan foydalanilgan.

TADQIQOT NATIJALARI

Bugungi kunda respublikamizda, ya'ni mintaqalarda tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha maxsus ta'sirchan tizimning yaratilishi ushbu faoliyat bilan keng shug'ullanish uchun zarur shart-sharoitlarni belgilaydi. Avvalo, davlat tomonidan tadbirkorlik subyektlarining huquq hamda qonuniy manfaatlarini muhofaza etish sharoitlari kuchaytirilmoqda va ularning faoliyatiga davlat organlarining asossizaralashuvining oldini olish ta'minlanmoqda. Hamda xususiy mulkning dahlsizligi ta'minlanib, huquqiy mexanizmlari yanada mustahkamlanmoqda va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining ustuvorligi prinsipini ta'minlash choralari ko'rilmogda.


Shular qatorida so'nggi yillarda xususiy mulk mavqeinioshish va uni himoya qilish, ishbilarmonlik muhiti va biznes yuritish sharoitlarini yanada yaxshilashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining 25 ta qonunlari qabul qilinib, sohaga oididoraviy normativ-huquqiy baza ham qayta ko'rib chiqildi. Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi konstitusiyasida muhrlab qo'yilgan "Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli" hamda "Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi dahlsiz va davlat himoyasida" degan normalarni amalda ro'yobga chiqarish maqsadida yangi institut – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil instituti ta'sis etildi [1].

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar uchun mavjud imkoniyatlar kengaytirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 maydagi PF-5037-sonli "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili institutini ta'sis etish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinib, u asosida tadbirkorlarni huquq va manfaatlarini samarali himoya qilinmoqda. Farmonga asosan, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili institutining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida tashkil etilishi vakilning o'z faoliyatini mustaqil hamda davlat organlari, ularning mansabdor shaxslariga tobe bo'lmagan holda amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Hamda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, xo'jalik subyektlari huquq hamda qonuniy manfaatlarini muhofaza etish sohasida davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda qatnashish, tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlariga rioya qilinishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish, tadbirkorlikning rivojlanishini yanada rag'batlantirishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash hamda boshqa vazifalarni amalga oshirish vakilning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari sifatida belgilangan. Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yirik tarmoq sifatida samarali rivojlanishi mavjud mintaqalarning iqtisodiy salohiyatiga bog'liq bo'lib, ushbu soha boshqa sohalarning keng taraqqiy qilishiga ham imkon bermoqda. Jumladan, bir necha yillar davomida Xorazm viloyati mintaqasi iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning salmog'i ortgan.

Xususan, ushbu soha orqali turli iqtisodiyot tarmoqlarida iqtisodiy faoliyat tashkil etilgan. 2025- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, ishtirokchisi mavjud maxsus iqtisodiy zonalar soni 31 ta (keyingi o'rinlarda – MIZ), kichik sanoat zonalar soni 417 ta (keyingi o'rinlarda – KSZ), texnoparklar soni 32 ta hamda klasterlar soni 353 ta (keyingi o'rinlarda – klaster) bo'lib, ularning tarkibidagi korxonalar soni MIZda 1 070 ta, KSZda 3 199 ta, texnoparklarda 3 381 ta va klasterlarda 383 taga yetdi (1-rasm) [27].

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi MIZ tarkibidagi korxonalarda 45 151,8 mlrd so'mni, KSZ tarkibidagi korxonalarda 13 402,5 mlrd so'mni, texnoparklar tarkibidagi korxonalarda 1 695,9 mlrd so'mni va klasterlar tarkibidagi korxonalarda 23 918,4 mlrd so'mni tashkil qildi. Eng yuqori sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi maxsus iqtisodiy zona tarkibidagi korxonalar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, 45 151,8 mlrd so'mni tashkil etdi hamda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 42,7 % ga oshganligini ko'rishimiz mumkin. O'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi MIZ tarkibidagi korxonalarda 98,7 mlrd so'mni, KSZ tarkibidagi korxonalarda 473,9 mlrd so'mni, texnoparklar tarkibidagi korxonalarda 950,6 mlrd so'mni hamda klasterlar tarkibidagi korxonalarda 16,3 mlrd so'mni tashkil qildi. O'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori hajmi texnoparklar tarkibidagi korxonalar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, 950,6 mlrd so'mni tashkil etgan hamda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,0 borobarga oshgan.



1-rasm. MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar ishtirokchilari soni.

Moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi MIZ tarkibidagi korxonalarda 12 176,3 mlrd so'mni, KSZ tarkibidagi korxonalarda 990,9 mlrd so'mni, texnoparklar tarkibidagi korxonalarda 567,8 mlrd so'mni va klasterlar tarkibidagi korxonalarda 3 012,2 mlrd so'mni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.


Statistika dasturiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tomonidan 2025- yil yanvar-sentabr oylari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (YAHM)ni dastlabki baholash ishlari amalga oshirildi (1-jadval) [27].

1-jadval. YAIM (YAHM) hajmi va o'sish sur'atlari

	2024- yil		2025- yil	
	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'atlari, % da	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'atlari, % da
O'zbekiston Respublikasi ³	1 079 875,5	106,6	1 303 702,1	107,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	32 405,7	106,5	36 814,1	106,1
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	65 606,5	106,3	74 620,5	105,6
Buxoro	51 127,2	105,8	59 871,0	107,4
Jizzax	31 191,7	105,7	37 782,0	108,8
Qashqadaryo	59 230,1	106,2	69 484,6	105,7
Navoiy	84 028,9	107,4	108 396,2	107,9
Namangan	49 734,6	107,3	58 582,9	107,2
Samarqand	75 874,0	106,5	87 483,9	107,7
Surxondaryo	40 968,9	106,2	46 926,5	106,0
Sirdaryo	20 489,7	104,2	24 645,9	108,4
Toshkent	109 297,2	107,7	126 761,2	107,3
Farg'ona	67 260,3	106,9	78 896,7	108,0
Xorazm	38 075,8	106,4	44 142,6	107,3
Toshkent sh.	207 423,3	110,0	252 111,2	111,2




2025- yilning yanvar-sentabr oylarida respublika bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent shahri 19,3 % ulush bilan eng katta hissa qo'shdi. Toshkent va Navoiy viloyatlari 9,7 % va 8,3 % ko'rsatkichlari bilan keyingi o'rinlarni egallab turibdi. Respublika YAIMini shakllantirishda eng kam ulush Sirdaryo viloyati (1,9 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (2,8 %) va Jizzax viloyatiga (2,9 %) to'g'ri kelgan (2-rasm) [27].



2-rasm. 2025- yilning yanvar-sentabrida YAIMni shakllantirishda hududlarning ishtiroki.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHM tarkibidagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Surxondaryo (37,8 %) va Jizzax (37,8 %) viloyatlarida, sanoatning eng yuqori ulushi Navoiy (74,5 %) va Toshkent (44,4 %) viloyatlarida, qurilishning eng yuqori



3-rasm. 2025- yilning yanvar-sentabrida YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, jamiga nisbatan % da

ulushi Toshkent shahri (11,4 %), Buxoro (9,9 %) va Surxondaryo (9,9 %) viloyatlarida, xizmatlar sohasining eng yuqori ulushi esa Toshkent shahri (62,3 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (51,5 %) kuzatildi (3-rasm) [27].

Bugungi kunda O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining shakllanishi va rivojlanishi izchil davom etmoqda. Ushbu subyektlar ko'pincha katta moliyaviy resurslarsiz, o'z tashabbuslari asosida ish joylarini yaratishga, iste'mol bozorida vaqtinchalik yuzaga kelgan tovar tanqisligini kamaytirishga va hatto bartaraf etishga qodir bo'lmoqda. Kichik korxonalar faoliyati aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lib, ayniqsa maishiy xizmatlar ko'rsatish hamda xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish yo'nalishlarida ularning roli yuksak baholanmoqda.



Bundan tashqari, kichik biznes subyektlari zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishda ham muhim o'rin utadi. Bu esa nafaqat iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga, balki zamonaviy ishlab chiqarish madaniyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaranganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida, ayniqsa aholining tabiiy o'sishi va ijtimoiy ehtiyojlarining ortib borishi fonida, ishlab chiqarish sohasini kengaytirish hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng qo'llab-quvvatlash, ularni har tomonlama rivojlantirish orqali aholining turli tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabini qondirish mumkin. Ayniqsa, kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, bank-moliya tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish, moliyalashtirish mexanizmlarini samarali yo'lga qo'yish va bu jarayonda tijorat banklarining ishtirokini kuchaytirish zarur hisoblanadi.

Bu esa o'z navbatida iqtisodiy barqarorlikka, tadbirkorlik muhitining yaxshilanishiga va yangi ish o'rinlarining yaratilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan, kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishda banklarning roli va ahamiyatini oshirish bo'yicha ilmiy-nazariy asoslarni ishlab chiqish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tizimli yondashuvini ta'minlash, zamonaviy moliyaviy va infratuzilmaviy mexanizmlarni tatbiq etish, shuningdek, xorijiy ilg'or tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish orqali hududlarda iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikka erishish mumkin. Bu esa mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev SH.M. Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Toshkent, 2018.
2. Rakhimov A. N., Makhmatkulov G. K., Rakhimov A. M. Construction of conometric models of development of services for the population in the region and forecasting them //The American Journal of Applied sciences. –2021. –T.3. Berdiyev J.Q. Theoretical fundamentals of enterprise economic power //Academicia Globe: Inderscience Research. –2022. –T. 3. –No. 4. –C. 1-6.4.
3. Ergashev T.K., Berdiyev J.Q. theoretical and practical aspects of using modern management methods in the hotel industry //theoretical & applied science. –2020. –no. 4. –C. 849-859.5.
4. A.Karimov. "Tadbirkorlik iqtisodiyoti". T., 2020.
5. Hasanov U.H. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda davlat siyosati. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. – 176-b. 3. Ruzmetova M.K. Xususiy sektor va uning iqtisodiyotni liberallashtirishdagi o'rni. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2020. – 145-b. 4. G'ofurova G.M. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikni tashkil etish. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2021. – 158-b. 5. Tursunov B.O. Hududiy iqtisodiyot va kichik biznesni rivojlantirish masalalari. – Termiz: Surxon nashriyoti, 2020. – 132-b.
6. A.X.Bektoshev. Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari. Образование наука и инновационные идеи в мире. Выпуск журнала №-69 Часть–4_ Мая –2025
7. M.A.Maxmudov. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy asoslari. Yil tadqiqotchisi -2024, Worldly knowledge.
8. J.Q.Berdiyev. Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari. Eurasian journal of academic research Innovative Academy Research Support Center UIF =8.1|October2022 ISSN 2181-2020
9. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. –М.: Эксмо, 2016, –1056 с.
10. Шумпетер Й. Теория экономического развития. –М.: "Мысль", 1982, С.159.
11. Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег. Избранное. –М.: Эксмо, 2007. С. 166–169 и 370.
12. Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство. –М.: 1991. –220 с.
13. Котлер Ф. Основы маркетинга. Краткий курс. / Пер. с англ. –М.: Издательский дом «Вильямс», 2007. –656 с. ил –Парал. тит. англ.
14. Пол А. Самуэльсон, Вильям Д.Нордхаус. Экономика: Пер с англ. –М.: «Лаборатория Базовых Знаний», 2000. –800 с.: ил.
15. Симионова Н. Е. Понятие бизнес-среды предприятия. <http://www.involveman.ru/kars-572-1.html> //involveman: привлечение менеджмента. (Электронный ресурс).
16. Блинов А. О. Малое предпринимательство. Организационные и правовые основы деятельности. –2-е изд. –М.: «Ось-89», 1998. –336 с
17. Менеджмент малого бизнеса: Учебник/ Под ред. проф. М.М.Максимцева и проф. В.Я.Горфинкеля. –М.: Вузовский учебник, 2007. –269 с.



18. Курс предпринимательства: Учебник для вузов. / В.Я.Горфинкель, В.А.Швандар, Е.М.Купряков и др.; –М.: Финансы, ЮНИТИ, 1997. –439 с.
19. Малый бизнес: Организация, экономика, управление: учеб. пособие/ под ред. В.Я.Горфинкеля, В.А.Швандара. –3-е изд., переработ. И доп. –М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007. –495 с.
20. Катъкало В.С., Панибратов А.Ю. Основы бизнеса: Учебник. –СПб.: Издат. дом С.-Претерб. гос. ун-та, 2006. –290 с. Дятлов А.Н. Общий менеджмент: концепции и комментарии: Учебник. / А. Н. Дятлов, М. В. Плотников, И. А. Мутовин. –М.: Альпина Бизнес Букс, 2007. –400 с.
21. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. –Т.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2002. –365 b.
22. Abdullayev Yo., Karimov F. kichik biznes va Tadbirkorlik asoslari. 100 savol va 100 javob(1-qism), Т.: "Mehnat", 2000. –347 b
23. Boltabayev M.R., Qosimova M.S., Ergashxodjayeva Sh.J., G'oyibnazarov B.K., Samadov A.N., Otajonov Sh.I. Kichik biznes va tadbirkorlik: O'quv qo'llanma. –Т.: Iqtisodiyot, 2012. –274 b.
24. Хаджимуратов А.А. Предпринимательство: Сущность и основные компоненты. –СПб.: Изд. Санкт-Петербургского Университета Экономики и финансов. 1995. –73 b
25. Aripov O.A. O'zbekistonda kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish vai shbilarmonlik muhitini rivojlantirish. -Т.: "IMPRESSMEDIA" nashrioyti, 2021. –225 b.
26. www.lex.uz
27. www.stat.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

8-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>